
Farg'onada ilk bor davlat fuqarolik xizmatchilari uchun sayyor qabul bo'lib o'tdi

Farg'onada ilk bor davlat fuqarolik xizmatchilari uchun sayyor qabul bo'lib o'tdi. Prezident huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashabbusi bilan qator tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan qabulda 100 nafarga yaqin davlat xizmatchilari ishtirok etdilar. Sayyor qabul viloyat hokimligi ko'magida tashkil etildi.

Murojatlarning aksar qismini davlat fuqarolik xizmatiga kirish, mehnat qonunchiligiga oid huquqiy maslahat, davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqlarini himoya qilish va ular uchun shart-sharoit yaratish yo'nalishlariga oid masalalar tashkil qildi.

13 ta murojaat qabul chog'ida ijobiy yechimini topdi, 21 tasi bo'yicha huquqiy tushuntirish berildi. Qo'shimcha o'rganishni talab qiladigan murojatlarning yechimini ta'minlash bo'yicha o'rganish ishlari olib boriladi.

2023-10-12 16:22:01